

## INOVATSIYALARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI AHAMIYATI

**Shakarov Q.A**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU “Menejment va marketing” kafedra  
professori.*

**Ashirova G.A.**

*TDIU 2-kurs magistranti.*

**Annotatsiya:** *Maqolada halqaro globallashuv va raqamli iqtisodiyotni shakllanishi sharoitida innovatsiyalar va innovatsion jarayonlarning iqtisodiyot rivojlanishida dolzarbligi va ahamiyati o'rganilgan va tatqiq etilgan.*

**Калит сўзлар:** *globallashuv, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, innovatsion jarayon, axborot, axborotlashgan jamiyat, dasturlashtirish.*

**Аннотация:** *В статье изучены и исследуются значение и актуальность инновации и инновационных процессов в развитии экономики в условиях формирования цифровой экономики и мировой глобализации.*

**Ключевые слова:** *глобализация, цифровая экономика, инновация, инновационный процесс, информация, информатизация общества, программирование.*

**Annotation:** *The article studies and investigates the significance and relevance of innovation and innovative processes in the development of the economy in the context of the formation of the digital economy and world globalization.*

**Key words:** *globalization, digital economy, innovation, innovation process, information, informatization of society, programming.*

Iqtisodiyotning innovatsion strategiyasini mohiyati korxonalar va kompaniyalarning innovasion faoliyat asosida rivojlantirish bo'lib, uning mazmuni yangi bilimlarni yaratish va ularni qo'llash orqali yangi tovarlar va texnologiyalarni ishlab chiqarish va bozorga olib chiqish, foyda olishdan iborat. Mavjud sharoitda davlatning ilmiy-texnik siyosatini samarali joriy etishning muhim sharti fan va texnika siyosatini samarali rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida ilmiy salohiyatni, moliyaviy va moddiy resurslarni konsentrasiyalashdan (joriy etilayotgan dastur va loyihalar asosida) iborat. Muvaffaqiyatli innovasion rivojlanish masalalarini ko'rayotib, faqat yangiliklarning vujudga kelishi va uni tarqatish mexanizmining muhimligini anglash emas, balki joriy etiladigan yangiliklarga bo'lgan talab va unga mos keladigan taklif bozorini shakllantirishga imkon beradigan zaruriy infratuzilmani yaratish tamoyillarini ham hisobga olish lozim. Innovasiya taklif bozori talab bozoriga nisbatan ob'ektiv holda to'yingan hisoblanadi. Ma'lumki, innovasion yangi g'oyalar juda kamdan kam hollarda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Innovasiya jarayonlarining tadqiqi real bo'lib ko'rinsa ham, barcha g'oyalarning faqatgina yuzdan biri, ayrim hollarda mingdan birigina tijoratda yutuqqa olib kelishini ko'rsatadi. Demak, bir g'oyani bir tomondan natijali, ikkinchi tomondan, amalga oshirish mumkin bo'lishi uchun juda ko'p takliflarni ko'rib chiqish kerak. Oqibatda, innovasiya – bu zarurlik g'oyasi va texnik imkoniyatlar g'oyasi o'rtasidagi

ittifoqdir. Bu yerda o'z mohiyati jihatdan, birinchi navbatda, innovasiya tizimidagi axborot jarayonini aniqlab beradigan innovasiyaning sinergetik samarasi to'la holda namoyon bo'ladi. Innovasion jarayon davlat iqtisodiyoti, tarmoq yoki korxonalar faoliyatining barcha sohalaridagi ishlarni, har bir bo'g'imdagi rentabellikni nazorat qilish asosida balansli holda takomillashtirishdir. Barcha yangilik kiritish korxonalar ishining har tomonlama tizimli, kompleks tahlil qilish asosida olib boriladi, muhimi olingan natijalarni erishilgan natijalarga emas, balki shu vaqtdagi bozorning imkoniyatiga (hajmiga) taqqoslanadi. Bunday tahlildan maqsad korxonaning bozor imkoniyatlaridan har bir davrda qay darajada foydalanganligini aniqlashdir. Yangiliklar bozorini bilim olish, innovasion kommunikasiyaning faoliyat ko'rsatish, ilmiy tovarlarni sotish sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy shakllar va mexanizmlar tizimi sifatida izohlash mumkin. Bozor mexanizmi yangiliklarni sotuvchi va oluvchilar o'rtasidagi aloqani (kommunikasiyani), baho, kredit (mos foizlar bilan) va boshqa qiymat kategoriyalarini o'z ichiga oladi. Unga yana yangiliklarga bo'lgan talab va taklif, taklifni baholash tizimi va kelishilgan baholarga erishish, pul massasini qoplash (investitsiya), yangilikning bahosi va boshqalar kiradi. Innovasion kommunikasiya tovar aylanishiga xizmat qiladi va innovasiya jarayonini boshqarish imkoniyatini beradigan yangiliklar bozoridagi ishtirokchilarga maqsadli yo'naltirilgan markaziy mexanizm hisoblanadi. Albatta bugungi jahon davlatlarining globallasuvi va jahon hamjamiyatini raqamlashtirish jarayonlari sharoitida korxonalar yoki kompaniyalar raqobat ustunligiga innovatsiya yordamida erishadi. Ular raqobatdoshlikka ega bo'lishi uchun yangi usullarni o'zlashtiradilar yoki samarali usullardan foydalanish raqobat kurashining yaxshi mahsuloti dizayn, yangi ishlab chiqarish jarayoni, marketing, yangicha yondashish yoki ishchilar malakasini oshirishning yangi usulida namoyon bo'ladi. Ko'pincha innovatsiya – yirik texnologik sakrashlardan emas, balki ahamiyatsiz bo'lgan yangiliklar yig'indisidan iborat bo'lgan oddiy va kichik ko'rinishda bo'ladi. Bu jarayonga ko'pincha g'oyalar jalb etiladi, yangilik biror-bir maqsadga yo'naltirilmaydi. Bunda doimo ishchilarning malakasi va bilimlarini jismoniy aktivlarga hamda savdo markazining iminjini oshirishga sarflash yuz beradi. Ayrim innovatsiyalar bozorlarda yangi imkoniyatlar yaratib, raqobatda ustunlik yoki boshqa raqiblar e'tibor bermagan bozor segmentlarini to'ldirishga imkoniyat yaratadi. Agar raqiblar unga e'tiborlarni sekin qaratsalar, bunday innovatsiyalar korxonalar uchun raqobatda ustunlikka olib keladi. Axborotlashgan jamiyatni rivojlanishi jahon davlatlarini o'zaro halqaro globallasuviga, bu esa o'z navbatida global iqtisodiyotga olib keldi. Global iqtisodiyot deganda, iqtisodiyot yetakchi komponentlarining institutsional, tashkiliy, texnologik imkoniyatlari real vaqt va jahoniy ko'lamda yaxlit holda ishlashi tushuniladi. Innovasion jarayonlarda tadbirkorlarning bilim va axborotlarni "mahalliy bozor"ga uzatishdagi faoliyati, global raqobat kurashining asosi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bu muhim elementlar qatoriga moliyaviy globallasuv, tovarlar va xizmatlar bozori, tarmoqlarning globallasuvi natijasida axborotlashtirish, fan va texnologiyalar dunyosida chegaralarning yo'qolishi kiradi. Natijada davlatning boshqarishdagi roli pasayadi, endi davlat emas, balki firmalar real savdo agentlari bo'lib qoladilar. Hozirgi kunda dunyoda iqtisodiyot tarkibi o'zgarimoqda – tobora ko'plab odamlar tovar ishlab chiqarish bilan emas, balki axborot olish va qayta ishlash bilan shug'ullanmoqda. Innovatsiyalar ham ko'proq axborot yoki

aloqa jarayonlarida yaratilmoqda. Hamma uchun odatiy bo'lgan iqtisodiyot o'rniga bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan raqamli iqtisodiyot shakllanmoqda: asosiy resursga tugab bitmaydigan axborot aylanadi; internetda savdo maydonlari cheklovlarga ega emas; kompaniya o'lchami uning raqobatbardoshligiga ta'sir etmaydi; bitta jismoniy resursning o'zi turli xizmatlar taqdim etish uchun cheksiz marta foydalanilishi mumkin; operatsion faoliyat ko'lami faqat Internet kuchi bilan belgilanadi. Axborotlashgan jamiyat o'sib borayotgan axborot almashinishni qo'llab-quvvatlash hamda moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning o'sishi va jamiyat resurslarining axborot sohasiga jalb qilinishi natijasida raqamli va dasturlashgan texnologiyalar asosida yanada rivojlanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan aytish mumkinki, axborot mehnat unumdorligining o'sishiga xizmat qilishi hamda ijtimoiy boylik ishlab chiqarishning moddiy tarkibiy qismida qo'shilgan qiymatni yaratishi ortgan sari jamiyat iqtisodiyotida asta-sekin evolyusion tarzda (ba'zida revolyusion) raqamli iqtisodiyotni shakllantira boradi. Raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish hamda ularni kundalik xayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirishdir. Raqamli iqtisodiyot — iktisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish mumkin bo'lgan tizimdir. Binobarin, bugungi tezkor zamonda jahon bo'ylab globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan sharoitda raqamli iqtisodiyot ilg'or davlatlar iqtisodiyotining barcha tarmog'ida keng joriy etilmokda. Xattoki, ayrim mamlakatlar ushbu sohaning eng yuqori cho'qqisi hisoblangan sun'iy intellektdan faol foydalanishga o'tganiga guvoh bo'lyapmiz. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan taxlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, shuning barobarida, xufiyona iqtisodi-yotga barham berish hamda korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini berar ekan. Ko'rinib turibdiki, mazkur soha yurtimizda barcha soha va tarmoqning yuksak rivojiga jiddiy turtki bo'ladi. Xalkaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki xayotning xar bir jabhasiga, xususan, sog'likni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq hamda suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshka sohalarga jadal kirib bormokda hamda ularning xar birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Hozirgi davrda biz texnologiyalar qanday qilib ommaviy xizmat ko'rsatish sohasini tubdan o'zgartirayotganini ko'ryapmiz. Vositachilarni olib tashlaydigan, mijoz va ta'minotchi o'rtasidagi aloqalarning to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishiga olib keladigan Uber kabi yangi biznes-modellar paydo bo'lmoqda. Avvalroq xuddi shunga o'xshash o'zgarishlar moliya sektori hamda telekommunikatsiyalarda ham ro'y bergan edi. Sanoatda ham bir qancha prinsipial o'zgarishlar kuzatilmoqda, chunki raqamli korxonalar va insonning raqamli qiyofadoshi — robotlar paydo bo'lishi butun insoniyat funksional modelini jiddiy ravishda o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu esa shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari astasekinlik bilan odamlarning o'rnini egallab boradi. Xuddi mana shu holat raqamli iqtisodiyot xisoblanadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar ro'y berishi lozim bo'lgan o'zgarishlar muqarrarligini tushunib, iqtisodiyotni raqamlashtirish tomon harakatni ongli ravishda boshladi. Bu yunalishni birinchilardan bo'lib ma'lum qilgan AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Xitoy bugungi kunda raqamli poygada norasmiy yetakchilar



sanaladi. O‘zbekiston yetuk raqamli iqtisodiyotni maksimal darajada tez rivojlantirishi mumkin. Hozirgi davrda bilimlar iqtisodiyotini yanada rivojlanishi, innovatsion faoliyatning muhimligi va uning izchil davomi sifatida axborotlashgan jamiyatning bugungi globallashuv sharoitida o‘ta muhim ahamiyatini anglagan holda, davlatlar zudlik bilan raqamli iqtisodiyotning o‘tmoqdalar. Bu esa hozirgi sharoitda iqtisodiy yetakchi davlatlardagi mahalliy kompaniyalarga yuksak texnologik sakrashni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi va boshqa mamlakatlarga nisbatan barcha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘shishini ta‘minlaydi. Demak, axborotlashgan jamiyat innovatsion faoliyatni yanada jadallashishi natijasida axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, raqamlashtirish jarayonlari odamlarga ishonchli axborot manbalariga ulanish va foydalanish imkonini beradigan, ularni tezkor axborotga ega bo‘lish orqali ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini “axborot sig‘imiga ega bo‘lgan mahsulot” asosida avtomatlashtirish darajasi yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni. 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

3.Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamraeva S.N. Raqamli iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. TDIU., T.: 2020yil, 368 b.

4.Innovationnyy menedjment: Konsepsii, mnogourovnevnye strategii i mexanizmy innovatsionnogo razvitiya: Ucheb. posobie / Pod red. V.M. Anshina, A.A. Dagaeva. – 3-ye izd., pererab., dop. – M.: Delo, 2007. – 584 s. 270 - 271s.